

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	464
ADABIYOTSHUNOSLIK	
N.M.Uluqov, N.Siddiqova	
She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari.....	470
M.M.Rakhmatova	
Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili	475
Sh.B.Xo'jayeva	
Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'ttasidagi bog'liqlilik	479
R.R.Mamatov	
Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari	483
D.M.Uralova	
Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni.....	486
N.A.Saidova	
Klyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari	489
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	493
U.Q.Muminova	
"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati.....	497
M.Q.Narziqulov	
Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli	502
M.Abdullayeva	
Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi	512
N.Y.Xolmatova	
Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari	515
Y.I.Nishanov	
Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari	520
Sh.K.Xashimova	
Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar	523
Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva	
O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari	527
B.I.Dexqonov	
Binokorlik terminlarining o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari	531
N.A.Rasulova	
Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash	535
M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova	
Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida)	540
G.Xonkeldiyeva	
Rus tilida padej kategoriysi tavsifi va undagi muammolar	543
X.Abdurahmonov	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati	546
N.Y.Ortiqova	
O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi	550
M.M.Abdulxayeva	
Tilshunoslikda sinonimianing o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari	556
N.T.Mutodov	
O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kategoriylar	560
Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova	
Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati	567
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari	570
G.Yusupova	
Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi	574

GERTA MYULLER ASARLARINING BADIY XUSUSIYATLARI**ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ГЕРТЫ МЮЛЛЕР****ARTISTIC FEATURES OF THE WORKS OF HERTA MULLER****Mamatov Ravshanbek Rustamovich¹****¹Mamatov Ravshanbek Rustamovich**

– Namangan davlat universiteti, Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis adibi Gerta Myullerning "Herztier" va "Atemschaukel" kabi romanlari poetikasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, asosan yozuvchining asarlaridagi metaforalar tahvilga olingan va yozuvchi mahorati ko'satib berilgan. Hozirgi kunda nemis adibi Gerta Myuller romanlari poetikasiga jahon adabiyoti mutafakkirlarini o'ziga jalb qilmoqda. Romanlarda qatnashgan bosh qahramonlar va epizod ishtirokchilar orqali Gerta Myuller o'z falsafasini tushuntira olgan.

Аннотация

В этой статье основное внимание уделяется поэтике романов немецкой писательницы Герты Мюллер, таких как "Herztier" и "Atemschaukel", в основном с анализом метафор в произведениях писателя и демонстрацией писательского мастерства. В настоящее время немецкая писательница Герта Мюллер привлекает к поэтике своих романов мыслителей мировой литературы. Через главных героев и участников эпизодов, участвующих в романах, Герта Мюллер смогла объяснить свою философию.

Abstract

This article focuses on the poetics of the novels of the German writer Herta Muller, such as "Herztier" and "Atemschaukel", mainly with an analysis of metaphors in the writer's works and a demonstration of writing skills. Currently, the German writer Herta Muller attracts thinkers of world literature to the poetics of her novels. Through the main characters and participants of the episodes involved in the novels, Herta Muller was able to explain her philosophy.

Kalit so'zlar: Gerta Myuller falsafasi, "Herztier" hamda "Atemschaukel" romanlari, badiiy ko'chim, metafora, obraz.

Ключевые слова: Философия Герты Мюллер, романы "Herztier" и "Atemschaukel", художественное движение, метафора, образ.

Key words: The philosophy of Herta Muller, the novels "Herztier" and "Atemschaukel", artistic movement, metaphor, image.

KIRISH

Adabiyot bo'yicha 2009-yilgi Nobel mukofoti sovrindori nemis adibi Gerta Myuller asarlarini tadqiq etish davomida shuni guvohi bo'ldikki, uning asarlari zamonaviy nemis adabiy kontekstidagi o'ziga xos o'ringa egadir.

Zamonaviy nemis asdabiyoti XX asrning o'talaridan boshlangani hammamizga ma'lum. G'arbiy Yevropaning madaniy rivojlanishidagi burilish nuqtasi ham XX asrning 60-70 yillariga to'g'ri keladi.

Gerta Myullerning ijodiy faoliyati ham shu yillarda rivojlanib bordi. Nemis adibi o'z asarlarini 1961-yildan nashr eta boshlagan va 1994-yili "Herztier" hamda 2009-yilda "Atemschaukel" romanini nashr etgan.

Ushbu maqolamizda Gerta Myuller nasrining yuksak badiiy qiymati yuqori darajada e'tirof etilgan davrga (1982-2009) alohida e'tibor qaratishni lozim topdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gerta Myuller asarlari poetikasini tadqiq etish davomida uning asarlaridagi barcha adabiy termin va tushunchalarga jahoning yetuk olimlari o'z fikr va mulohazalarini bayon qilib o'tishgan. Xususan, metafora termini tushunchasi bo'yicha S.A.Xalolova: "Metafora – bu fanning turli sohalari: falsafa, adabiy tanqid, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik, mantiq, genetika va boshqalarni o'rganish obyekti hisoblanadi, shuningdek, "metafora muammosi fanlararo tadqiqot aspektida dolzarbdir" [1-291]. Lekin G.N. Sklyarevskaya ta'kidlaganidek, "Metafora, birinchi navbatda, lingvistik hodisa va shuning uchun birinchi navbatda tilshunoslikda to'liq talqin qilinishi kerak" [2-148].

Ammo metafora lisoniy hodisa sifatida muhokamasi qadimgi tadqiqotchilarning falsafiy qarashlariga borib taqaladi, bu esa metaforani til tizimining birligi sifatida o'rganishni yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Nazariy adabiyotlarni ko'rib chiqish falsafada Aristotelidan boshlab, boshqa qadimgi va keyingi mualliflarning metafora haqidagi munozaralari metafora to'g'risidagi falsafiy fikrning quyidagi rivojlanish davrlari doirasida amalga oshirilganligini ta'kidlashga imkon beradi:

1. Antik davr (miloddan avvalgi VIII asr - milodiy V: Aristotel, Gippokrat, Demetriy, Kvintillian, Platon, Sokrat, Teofrast, Tsitseron, Ezop, Epikur va boshqalar);
2. O'rta asrlar (V asr oxiri — XVI asr: T.Gobbs, J.Lokk va boshqalar);
3. Yangi asr (XVII asr o'rtalaridan 1918-yilgacha: A.Bergson, Volter, J.V.Gyote, F.Nitsshe, J.Pol, J.J.Russo va boshqalar);
4. Hozirgi zamon (1918-yildan hozirgi kungacha: M.Blek, X.Verner, D.Devidson, E.Kassirer, F.Kafka, S.Pepper, A.A.Richards, J.R.Searl, F.Uilrayt, S.Harnad va boshqalar).

Yuqorida aytib o'tilganidek, metaforani o'rganishning kelib chiqishi antik davrga, to'g'ridan-to'g'ri almashtirish nazariyasi bilan shug'ullangan Aristotel nomiga borib taqaladi. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan metafora insoniy muloqotning muhim qismi sifatida emas, balki ko'proq ekspressivlikka erishish formulasi sifatida qaraladi [3-183]. Keyinchalik, Kvantician metafora ob'ektlarni nomlashda tilda qiyin vazifani bajarishini ta'kidlab, metaforani elliptik taqqoslashga qisqartiradi [4-754] va Tsitseron uni "Kuchli ritorika quroli" sifatida tan oladi [5-148]. Shuni ham yodda tutishimiz kerakki, metafora muammosi Gippokrat, Platon, Sokrat, Epikur va boshqa antik faylasuflar tomonidan ham o'rganilgan.

O'rta asrlarda T.Hobbes metaforadan nafratlanganligini va uni "Nutqni ochiqchasiga suiiste'mol qilish" deb hisoblaydi. V.I.Shuvalovning fikriga ko'ra, "O'rta asrlar ratsionalistik falsafasining salbiy munosabatini sababi shundaki, metafora fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifoda eta olmaydi va haqiqatni yetarli darajada ochib bera olmaydi" [5-148].

Uyg'onish davrida, ya'ni XVIII asrgacha metafora, Aristotel an'analariga muvofiq, faqat ritorik figura sifatida va biroz keyinroq – troplardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Bu "insonning ijodiy qobiliyatiga ustunlik berish zamonaviy davrga xos"ligi [6-130] bilan bog'liq.

Shunday qilib, metafora bo'yicha nazariy tadqiqotlarni ko'rib chiqish, metafora lingvistik mohiyatini o'rganishning kelib chiqishi olimlarning falsafiy nazariyalari bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga kelish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yosh avlodga ta'llim-tarbiya berish jarayonida ularni har tomonlama bilimini chuqurlashtirish, xususan adabiyot darslarida nemis adibi Gerta Myullerning ijodini o'rgatish ustivor vazifalardan hisoblanadi hamda ularni o'rganish quyidagicha xarakterlanadi:

- Gerta Myuller nasrining badiiy xususiyatlari va uning poetologiyasining falsafiy asoslari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillarni aniqlash.
- Gerta Myullerning badiiy uslub va poetologik kontseptsiyasining badiiy amaliyot bilan kesishgan nuqtalarini aniqlash.
- Gerta Myuller nasrida ko'rib chiqilgan eng muhim ijtimoiy-falsafiy muammolarni aniqlash, ularning badiiy idrok etish xususiyatlarini zamonaviy nemiszabon yozuvchilarning tegishli masalalarga oid asarlari bilan taqqoslab o'rganish.
- Gerta Myuller nasrining janr xilma-xilligini, nemis adibining nemis tilidagi adabiyotda shakllangan kichik janrlarning rasmiy mazmun naqshlariga tanqidiy munosabatini o'rganish.
- Belgilangan maqsad va vazifalarga erishishda qiyosiy-tarixiy, biografik va madaniy-tarixiy tadqiqot usullaridan foydalanish.
- Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida metaforaning lingvistik va aqliy mohiyatiga oid tadqiqotning konseptual xususiyatini aniqlash.
- Nutqni o'rganishning nazariy asoslarini ochib berish, fan taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi holatini aniqlash.
- Matn, nutq, metafora tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.
- Nemis tilidagi badiiy nutqning xususiyatlarini tahlil qilish.
- Nemis tilidagi badiiy nutqda kontseptual metafora faoliyatining xususiyatlarini aniqlash.

ADABIYOTSHUNOSLIK

- Nemis tilidagi badiiy nutq Gerta Myullerning chuqur ma'nolarini shakllantiradigan va aniqlaydigan tushunchalarni hisoblash usuli sifatida metaforaning fraktal qurilishidan foydalash.
- Nemis tili materiali asosida metafora fraktal qurilishining chuqur ma'nolarini tahlil qilish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gerta Myuller asarlarini tadqiq qilish jarayonida nemis adibining asarlarida asosiy g'oya insorlarda bir-biriga hurmat, ona-yurtni asrab avaylash, yoshlarda o'z yurtiga mehr-tuyg'u, insonlarni halollikka, eng asosiysi vatanparvarlik ruhini shakllantirish kabi g'oyalar ustivor ekanligi aniqlandi.

Gerta Myuller asarlarida asosan kontseptual metaforani o'rganishga, ya'ni kompleks yondashuv va metaforalarning fraktal konstruktсиyalari asosida badiiy nutqning chuqur ma'nolarini tashkil etuvchi tushunchalarni hisoblash metodologiyasini ishlab chiqishga e'tabor qaratilgan.

Gerta Myuller metaforik ijodining kontseptsiya sohasini tuzuvchi tushunchalar sabab, inklyuziya va to'ldiruvchilik munosabatida ekanligi ma'lum bo'ldi.

Nemis adibining asarlarini o'rganish shuni ko'rsatyaptiki, metaforaning fraktal tabiatini badiiy nutqning diskursiv strategiyalari va chuqur ma'nolarini bilish va anglash mexanizmiga kirib borish mumkin.

MUHOKAMA

Nemis adibi Gerta Myuller o'z asarlari bilan adabiyot sohasida juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Adibning asarlarini nemis adabiyotini yanada jahonda yuqori cho'qqilarga olib chiqdi. Demak uning asarlaridagi asosiy go'yalar dunyoda tinchlikka chaqiruvchi g'oyalar bo'lganligi bois adabiyot sohasida uning asarlarini Nobel mukofotiga loyiq deb e'tirof etilishi kitobxonlarda uning nodir asarlarini o'rganishga chaqiradi.

XULOSA

Fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida metafora, nutq kabi tushunchalar tadqiqotchilarni alohida qiziqtirmoqda. Metaforani o'rganishning kelib chiqishi bevosita falsafa bilan bog'liq bo'lib, bu metaforani tilshunoslik doirasida yanada chuqurroq o'rganishga turki bo'ldi.

Metaforaning lingvistik mohiyatini lingvistik tadqiqotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, metafora ikkilamchi bilvosita nominatsiyaning lisoniy belgisi bo'lib, shaklning soxta birlik yoki murakkab denotatsiyadan haqiqiy birlik yoki murakkab denotatsiyaga o'tishiga asoslangan.

Agar e'tibor bersak, nutq va matn atamalari noaniq talqin qilinadi, lekin ikkalasi ham bir-birini to'ldiradi. To'ldiruvchilik makonida nutqiy harakat turlari va metaforik birliklar mavjud. Metafora va matnning o'zaro ta'sirining o'ziga xosligi lingvistik darajada, metafora va nutq esa aqliy darajada aktuallashadi.

Nutq nazariyalarini o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda nutqning ko'plab tipologiyalari mavjud. Nutq turlaridan biri badiiy nutqdir. Bu ma'lum bir kontseptsiya atrofida tematik tarzda tashkil etilgan va ma'lum bir kognitiv senariy bo'yicha qurilgan bitta muallifning adabiy matnlari to'plamining virtual haqiqatidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хахалова С.А. Метафора в аспектах языка, мышления и культуры / С.А. Хахалова. - 2-е изд., испр. и доп. - Иркутск: ИГЛУ, 2011 в. - 291 с.
2. Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка / Г.Н. Скляревская. - СПб.: Наука, 1993. - 148 с.
3. Аристотель Об искусстве поэзии / Пер. с древнегреческого В.Г. Аппельро- та. - М.: Госполитиздат, 1957.- 183 с.
4. Kohl K. Poetologische Metaphem: Formen und Funktion in der deutschen Lite- ratur / K. Kohl. - Berlin, N. York: Walter de Gruyter, 2007. - 754 S.
5. Шувалов В.И. Метафорический дискурс / - М.: Прометей, 2005.- 148 с.
6. Хайрулина А.Р. Ценностная составляющая концепта TIER (на материале произведений Герты Мюллер) / А.Р. Хайрулина // Вестник ИГЛУ. Сер. Филология. - Иркутск: ИГЛУ, 2012. - № 3 (20). - С. 130.